

ZAMONAVIY OILADA BOLALARGA NISBATAN ZO‘RAVONLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

Kushakova Barno Komilovna

Urganch texnologiyalar universiteti magistranti

Annotatsiya: Zamonaviy oila bolalar shaxsining shakllanishida muhim rol o‘ynaydi, biroq bolalarga nisbatan zo‘ravonlik masalasi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Ushbu maqolada oilaviy zo‘ravonlik tushunchasining nazariy asoslari, uning turlari va oqibatlari o‘rganiladi. Bolalar zo‘ravonligining psixologik va ijtimoiy jihatlariga, shuningdek, uning shaxs rivojlanishiga ta’siriga alohida e’tibor qaratiladi. Oilaviy zo‘ravonlikka sabab bo‘luvchi omillar va uni oldini olish yo‘llari tahlil qilinadi. Zo‘ravonlik holatlarini aniqlash usullari hamda bolalarni himoya qilish choralari ko‘rib chiqiladi. Profilaktika va oilaviy qo‘llab-quvvatlash muhimligi ta’kidlanadi. Oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashish uchun ta’lim va huquqiy chora-tadbirlarni joriy etish zarurati asoslanadi.

Аннотация: Современная семья играет ключевую роль в формировании личности ребенка, однако проблема насилия в отношении детей остается актуальной. В данной статье рассматриваются теоретические основы понятия насилия в семье, его виды и последствия. Особое внимание уделяется психологическим и социальным аспектам детского насилия, а также его влиянию на развитие личности. Анализируются факторы, способствующие семейному насилию, и возможные пути его предотвращения. Рассматриваются методы выявления случаев насилия и меры защиты детей. Подчеркивается важность профилактики и поддержки семей. Обосновывается необходимость внедрения образовательных и правовых мер для борьбы с насилием в семье.

Abstract: The modern family plays a crucial role in shaping a child's personality, yet the issue of violence against children remains relevant. This article explores the theoretical foundations of domestic violence, its types, and consequences. Special attention is given to the psychological and social aspects of child abuse and its impact on personality development. The factors contributing to family violence and possible prevention measures are analyzed. Methods for identifying cases of violence and child protection measures are examined. The importance of prevention and family support is emphasized. The necessity of implementing educational and legal measures to combat domestic violence is substantiated.

Kalit so‘zlar: oila, bolalar, zo‘ravonlik, oilaviy zo‘ravonlik, psixologik ta’sir, ijtimoiy muammo, shaxs rivojlanishi, huquqiy chora-tadbirlar, profilaktika, bolalarni himoya qilish, zo‘ravonlik turlari, tarbiya, ota-ona mas’uliyati, pedagogik yondashuv, psixologik yordam

Ключевые слова: семья, дети, насилие, домашнее насилие, психологическое воздействие, социальная проблема, развитие личности, правовые меры, профилактика, защита детей, виды насилия, воспитание, ответственность родителей, педагогический подход, психологическая помощь

Keywords: *family, children, violence, domestic violence, psychological impact, social problem, personality development, legal measures, prevention, child protection, types of violence, upbringing, parental responsibility, pedagogical approach, psychological support*

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda oilaning ahamiyati ortib bormoqda, chunki u bolalarning shaxsiyati va ijtimoiy moslashuvining shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Biroq, oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi dolzarb bo‘lib qolmoqda. Zo‘ravonlikning turli shakllari – jismoniy, ruhiy, emotsional va iqtisodiy – bolalarning ruhiy holati va kelajakdagi hayotiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilaviy zo‘ravonlikka duch kelgan bolalar stress, depressiya va o‘ziga ishonchsizlik kabi muammolarga moyil bo‘ladilar. Bu esa ularning ta’lim jarayoni, ijtimoiy munosabatlari va kasbiy faoliyatida muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish va uning oqibatlarini kamaytirish jamiyatning asosiy vazifalaridan biridir. Bu borada huquqiy, pedagogik va psixologik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Zo‘ravonlik holatlarini aniqlash, ularni bartaraf etish hamda bolalarga psixologik yordam ko‘rsatish mexanizmlarini ishlab chiqish orqali bu muammoni hal etish mumkin. Jamiyatda ota-onalar, pedagoglar va mutaxassislarining bolalar bilan munosabatlarini yaxshilash, ularning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha faoliyatni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasining nazariy asoslarini o‘rganish jarayonida turli ilmiy manbalar, xalqaro hujjatlar va milliy qonunchilik tahlil qilindi. Ilmiy adabiyotlarda zo‘ravonlik tushunchasi psixologik, sotsiologik va huquqiy nuqtai nazardan o‘rganilgan bo‘lib, ularning har biri mazkur masalaga o‘ziga xos yondashuvni taklif etadi. Bandura tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy ta’lim nazariyasi zo‘ravonlikning o‘rganilgan xulq-atvor ekanligini ta’kidlaydi, ya’ni bola oilada kuzatgan agressiyani o‘z hayotida takrorlash ehtimoli yuqori bo‘ladi. Bowlbyning bog‘lanish nazariyasiga ko‘ra, ota-onalar tomonidan qo‘llaniladigan zo‘ravonlik bolaning ishonch tizimiga jiddiy zarar yetkazib, uning kelajakdagi munosabatlarida muammolar yuzaga kelishiga sabab bo‘lishi mumkin. Sotsiologik yondashuvda oiladagi zo‘ravonlik ijtimoiy muhit, iqtisodiy sharoit va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq holda tushuntiriladi. Straus va Gelles tomonidan olib borilgan tadqiqotlar oilaviy zo‘ravonlikning keng tarqalganligini hamda uning ijtimoiy omillar bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi. Shuningdek, oilaviy munosabatlar dinamikasiga doir tadqiqotlar oilaviy stress, nizolar va nazorat mexanizmlarining zo‘ravonlikka qanday ta’sir qilishini ochib beradi. Huquqiy manbalar bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurashish borasida qabul qilingan xalqaro va milliy me’yoriy-huquqiy hujjatlar tahliliga asoslanadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilish bo‘yicha asosiy xalqaro hujjatlardan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va UNICEF tomonidan e’lon qilingan hisobotlar bolalarga nisbatan

zo‘ravonlikning global ko‘lamini ochib beradi va profilaktika strategiyalarini tavsiya qiladi. O‘zbekiston Respublikasida bolalarni himoya qilish bo‘yicha milliy qonunchilik doirasida "Bola huquqlari to‘g‘risida"gi Qonun va Oila kodeksi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu huquqiy hujjatlar bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni oldini olish, jabrlangan bolalarni reabilitatsiya qilish va ularni himoya qilish mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Amaliy tadqiqotlarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning real hayotdagi ko‘rinishlari va uning oqibatlari batafsil o‘rganilgan. Finkelhor bolalar jismoniy va jinsiy zo‘ravonlikka uchraganda yuzaga keladigan psixologik va ijtimoiy oqibatlarni tahlil qilib, bunday tajribalar bolaning butun hayotiga ta’sir ko‘rsatishini aniqlagan. Garbarino esa bolalar va oilalar ijtimoiy muhitining ularning rivojlanishiga ta’sirini o‘rganib, bolalar himoyasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar bergan. Kempe tomonidan olib borilgan izlanishlar esa "Bola kaltaklash sindromi" tushunchasini ilmiy muomalaga kiritib, tibbiyot va huquq-tartibot organlarining oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurashishdagi rolini ta’kidlagan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, bolalarga nisbatan zo‘ravonlik masalasiga turli ilmiy yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning har biri muammoning turli jihatlarini ochib beradi.

Psixologik tadqiqotlar zo‘ravonlikning shaxs rivojlanishiga ta’sirini tushuntiradi, sotsiologik yondashuv ijtimoiy va iqtisodiy omillarni tahlil qiladi, huquqiy tadqiqotlar esa bolalarni himoya qilish bo‘yicha qonuniy mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Shu bois, mazkur mavzuni kompleks o‘rganish uchun turli fanlar doirasidagi adabiyotlardan foydalanish muhim sanaladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi ushbu mavzuni o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan ilmiy usullar, yondashuvlar va tahlil usullarini o‘z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik tushunchasining nazariy asoslarini o‘rganish, uning turli shakllari va ta’sir omillarini aniqlash, shuningdek, profilaktika va himoya choralari bo‘yicha takliflar ishlab chiqish maqsad qilingan. va normativ hujjatlari tahlil qilindi. Ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil qilishda kompleks yondashuv qo‘llanilib, sifat va miqdoriy tadqiqot usullari uyg‘unlashtirildi. Tadqiqotning nazariy usullari doirasida bolalarga nisbatan zo‘ravonlik fenomeni turli ilmiy nuqtai nazarlardan o‘rganildi. Ilmiy adabiyotlar va ilgari o‘tkazilgan tadqiqotlarni tahlil qilish orqali mavjud yondashuvlar hamda tushunchalarning ta’rifi ishlab chiqildi. Zo‘ravonlikning psixologik, pedagogik va huquqiy jihatlar bo‘yicha ilgari nashr etilgan ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar va xalqaro tashkilotlarning hisobotlari o‘rganildi.

Miqdoriy tadqiqot usullari doirasida statistik tahlil va so‘rovnomalar orqali bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning tarqalishi, uning asosiy sabablari va oqibatlari o‘rganildi. Jamiyatdagi turli qatlamlar vakillari – ota-onalar, o‘qituvchilar, psixologlar va huquq-tartibot organlari xodimlari o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazildi. Olingan natijalar asosida muammo miqyosi va uning mintaqaviy xususiyatlari aniqlab berildi. Sifat tadqiqot usullari doirasida bolalar bilan individual suhbatlar, psixologik testlar va tajribalar o‘tkazildi.


Tadqiqot davomida oilaviy zo‘ravonlikning ta’siri individual va ijtimoiy darajada qanday namoyon bo‘lishi, uni bartaraf etishning samarali yo‘llari aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil va natijalar bo‘limida zamonaviy oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning turlari, sabablari va oqibatlari chuqur tahlil qilindi hamda empirik tadqiqotlar natijalari asosida muhim xulosalar chiqarildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, oilaviy zo‘ravonlikning asosiy turlari jismoniy, psixologik, emotsional va iqtisodiy zo‘ravonlik bo‘lib, ularning har biri bolalarning ruhiy holati va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Jismoniy zo‘ravonlik kaltaklash, majburlash, turli jazo choralarini qo‘llash kabi shakllarda namoyon bo‘lsa, psixologik zo‘ravonlik bolani kamsitish, doimiy bosim ostida ushlab turish, tahdid qilish va haqoratlash orqali amalga oshiriladi. Emotsional zo‘ravonlik bolani e’tiborsizlik, mehr yetishmovchiligi va rad etish bilan ta’riflanadi, bu esa uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi va depressiyaga moyilligini oshiradi. Iqtisodiy zo‘ravonlik esa bolani moddiy ehtiyojlardan qasddan mahrum qilish, unga moliyaviy qaramlik yuklash orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning aksariyati oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik holatlarini kuzatgan yoki shaxsiy tajribasida boshidan kechirgan. Ota-onalarning tarbiya uslublari tahlil qilinganda, avtoritar va repressiv yondashuvlar ustunlik qilayotgani aniqlandi, bu esa bolalar ruhiyatiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Bundan tashqari, oilaviy zo‘ravonlikning asosiy sabablaridan biri ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar, ota-onalarning psixologik bosim ostida bo‘lishi va bolalar bilan muloqot madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligi bilan bog‘liq ekani aniqlandi. Shuningdek, oilada ota-onalarning bolalar bilan muloqoti sifati tahlil qilinib, ko‘plab hollarda bolalarning fikri e’tiborga olinmasligi, ular bilan samarali muloqot olib borilmasligi aniqlangan.

Psixologik jihatdan tahlil qilinganda, bolalar zo‘ravonlikka duch kelganida o‘zini past baholash, tajovuzkorlik, ijtimoiy chekinish, depressiya va tashvish kabi muammolar yuzaga kelishi kuzatilgan. Zo‘ravonlikning uzoq muddatli oqibatlari esa bolalarning o‘z hayotlarida ham shunday salbiy tajribalarni takrorlash ehtimolini oshirishi, ularning kelajakdagi oilaviy munosabatlari va kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liqdir. Huquq-tartibot organlari va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi hamkorlik tizimi zaifligi sababli bolalar zo‘ravonligi holatlarining aksariyati rasmiy ro‘yxatga olinmaydi yoki vaqtida chora ko‘rilmaydi. Bu esa jabrlangan bolalarning reabilitatsiya jarayonini murakkablashtiradi va ularning huquqlarini to‘laqonli himoya qilish imkoniyatlarini cheklaydi. Shu sababli, bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish va profilaktik chora-tadbirlarni kuchaytirish zarurati yuzaga kelmoqda. Tahlil natijalariga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish uchun profilaktika dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish muhim ekani aniqlandi. Pedagoglar va psixologlar ishtirokida bolalar va ota-onalar uchun psixologik treninglar tashkil etish, oilaviy psixologiya bo‘yicha maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, shuningdek, jamiyatda bolalarga nisbatan munosabatni yaxshilashga qaratilgan targ‘ibot kampaniyalarini olib borish lozim. Bolalarni himoya qilish tizimini mustahkamlash uchun huquqiy va psixologik xizmatlar o‘rtasidagi hamkorlikni

kuchaytirish, zo‘ravonlik holatlarini erta aniqlash va ularning oldini olish bo‘yicha maxsus dasturlar ishlab chiqish talab etiladi. Shu bilan birga, bolalarga nisbatan zo‘ravonlikni kamaytirish uchun oilaviy tarbiya madaniyatini oshirish, ota-onalarga pedagogik va psixologik ta‘lim berish, shuningdek, bolalar huquqlarini himoya qilish borasidagi qonunlar ijrosini kuchaytirish zarurligi ta‘kidlandi.



Umuman olganda, tadqiqot natijalari bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammosining ko‘lamini, uning asosiy sabablarini va oqibatlarini batafsil yoritib berdi. Zo‘ravonlik holatlarining oldini olish va uni bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish, bolalar himoyasiga oid huquqiy asoslarni takomillashtirish, jamiyatda ushbu masalaga bo‘lgan e‘tiborni oshirish zarurligi aniqlandi. Tadqiqot yakunlari bolalarning xavfsiz va sog‘lom muhitda rivojlanishini ta‘minlash uchun tizimli yondashuvni ishlab chiqish muhimligini ko‘rsatdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy oilalarda bolalarga nisbatan zo‘ravonlik muammosi hali ham dolzarb bo‘lib qolmoqda. Jismoniy, psixologik, emotsional va iqtisodiy zo‘ravonlikning bolalar ruhiyati va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy ta‘siri aniqlangan. Tadqiqot davomida respondentlarning aksariyati oilaviy zo‘ravonlik holatlarini kuzatgan yoki shaxsiy tajribasida boshidan kechirganligi qayd etildi. Oilaviy muhitdagi ziddiyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar va ota-onalarning tarbiya uslublaridagi kamchiliklar ushbu muammoga sabab bo‘luvchi asosiy omillar sifatida belgilandi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va bolalarning huquqlarini himoya qilish uchun huquqiy, psixologik va ijtimoiy mexanizmlarni takomillashtirish zarur.

Takliflar:

Oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish va bolalarning huquqlarini himoya qilish bo‘yicha samarali choralar ishlab chiqish zarur. Bu borada davlat organlari, ta‘lim muassasalari,

psixologlar va jamoat tashkilotlarining o‘zaro hamkorligini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega. Quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Huquqiy asoslarni mustahkamlash: Bolalar huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qonunchilik bazasini takomillashtirish, oilaviy zo‘ravonlikka qarshi kurash bo‘yicha amaliy mexanizmlarni kuchaytirish va zo‘ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish lozim.

2. Psixologik va tarbiyaviy dasturlarni kengaytirish: Ota-onalar uchun psixologik treninglar, pedagogik kurslar va maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish, bolalar bilan muloqot madaniyatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etish muhimdir.

3. Jamoatchilik va media rolini oshirish: Zo‘ravonlikning salbiy oqibatlari va bolalar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va jamoatchilik tashabbuslarini keng targ‘ib qilish orqali aholining xabardorligini oshirish zarur.

Shu bilan birga, bolalar tarbiyasida sog‘lom va xavfsiz oilaviy muhitni yaratish uchun kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish va davlat hamda nodavlat tashkilotlar hamkorligini yanada kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alekseeva I.A. Travlya v shkole: prichiny, posledstviya, pomoщь / I.A. Alekseeva. - [Elektronnyy resurs]. - URL: <http://psy.su/feed/2510/> (data obrasheniya 05.05.2019).

2. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o‘rganishning o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.

3. Kamolova, A. O. Q., & Husaynova, S. I. (2023). O‘smirlar o‘rtasida axloqsizlikni oldini olishda pedagogik faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 4(2), 969-972.

4. Nishonova M.Ya., & Kamolova A.O. (2021). O‘SMIRLARGA HUQUQIY BILIM BERISHDA KEYS STADI TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH. Экономика и социум, (8 (87)), 42-45.

5. Nishonova, M. Y., & Kamolova, A. O. (2021). USING CASE STADE TECHNOLOGY IN LEGAL EDUCATION FOR TEENAGERS. Экономика и социум, (8), 42-45

6. Bannayev, M. S. (2022). O‘zbeksitonda psixologik diagnostika va psixologik korreksion faoliyatni amalga oshirishdagi muammolar va yechimlar. Science and Education, 3(6), 701–703

7. Bannayev, M. S. (2021). O‘zbeksitonda maktabgacha ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida psixologik xizmatning tashkil etish imkoniyati va muammolari. Science and Education, 2(7), 293–297.

8. Saviya.uz